

**G'O'ZA NAVLARINING KO'CHAT QALINLIGI VA CHILPISH
MUDDATLARINING PISHIB YETILISHIGA TA'SIRI**

H.R.Yusupov, q.x.f.f.d. (PhD) - *Urganch Davlat Universiteti*

D.I.Shakirova – *Urganch Davlat Universiteti Biologiya yo'nalishi
magistranti*

Annotation: *In this article, comparing "Khorazm-127" grown in the soil and climatic conditions of Khorezm region, "Sultan" and "C-8294 " The influence of seedling thickness and the duration of the harvest on the early ripening of cotton varieties is studied.*

Key words: *Variants, varieties, Khorezm-127, Sultan, C-8294, planting system, harvest periods, ripening, productivity, harvesting.*

Har bir g'o'za navining hosildorligini aniqlash bilan birga, uning tezpisharligini bilish ham muhim ahamiyatga ega.

Bizni izlanishlarimizda g'o'za navlarini ko'saklarini ochilish tezligi va ularni tezpisharligi biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko'chat qalinligi hamda chilpish muddatlarining tasirini o'rgandik.

Bu izlanishlarni olib borishdan maqsad: fermer xo'jaliklari uchun paxta hosiliga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda navlarni tezpisharligini oshirishdir. Bu muammo azaldan dolzarb hisoblangan, qolaversa hozirgi intensiv dehqonchilik soxasida 2-3 kunga bo'lsa ham paxtani ertaroq yig'ib-terib olinsa boshqa ekinlarni ekishga zamin yaratish uchun imkoniyat yaxshilanadi. Kuzgi shudgorni o'z muddatida sifatli o'tkazishni iloji bo'ladi.

F.Mamatsoilyevning tavsiyalariga [1] asosan g'o'zani chilpish ishlarini kechiktirilishi yoki sifatsiz o'tkazilishi oqibatida, poya bo'yiga o'sib g'ovlab ketadi va hosildorlik 15-20 foiz kamayib, pishib yetilishi 7-10 kunga kechikadi. Shuningdek, ko'saklar kichrayib, vazni kamayadi, g'o'za barglari ko'payib, ko'saklar qobig'i qalinlashishi natijasida hasharotlar jumladan, ko'sak qurti soning ko'payishiga olib kelishi kuzatiladi.



SH.Abdualimov, F.Hasanova [2; 7-8-b]lar Avgust oylarining boshlarida rivoji kechroq bo'lgan dalalardagi g'o'zalarni chilpish ishlarini yakuniga tezroq yetkazish lozimligini takidlaydilar. Kechki dalalarda paxta erta pishib yetilishi ta'minlash maqsadida, chilpishda Sojean, Entojean va boshqa tarkibida mepikvat xlorid bo'lgan preparatlar bilan 90-100 g/ga me'yorda 250-300 l suv bilan ishchi aralashma tayyorlanib, bir gektar maydondagi g'o'zalarga ishlov berilsa uning rivoji 7-8 kunga tezlashadi, hosildorlik 3-5 s/ga va hattoki 7-8 s/ga ortishiga erishiladi.

Xorazm viloyati o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida (2022-2024 y.) olib borilgan tajribalarda g'o'za navlarini chigiti ekilgandan birinchi ko'sak paxtasi ochilguncha ketgan kunlar xisoblandi va navlarni tezpisharligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Ko'chat qalinligi va chilpish muddatlarining g'o'za navlarini tezpisharligiga ta'siri (kunlar)

№ Navlar Ekish sxemasi Chilpish muddatlari 2022-yil
2023-yil 2024-yil

№	Navlar	Ekish sxemasi	Chilpish muddatlari	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1	Xorazm-127	60x15-1	12-14	128	130	129
2	Sulton	60x12-1	10-11	120	121	120
3			12-14	127	127	126
4			15-16	127	128	127
5		60x15-1	10-11	118	120	119
6			12-14	126	128	127
7			15-16	127	126	126
8	C-8294	60x12-1	10-11	115	118	117
9			12-14	118	120	118
10			15-16	119	121	120
11		60x15-1	10-11	111	113	113
12			12-14	117	119	118
13			15-16	120	122	121

Tajribada nazorat sifatida olingan



Xorazm-127 navini 60x15-1 sxemasida ekib 12-14 xosil shoxida chilpish o'tkazganimizda 1-ko'sak ochilishi 2020-yilda 128 kunni, 2021-yilda 130 kunni, 2022-yilda 129 kunni tashkil qildi. Sulton navini 60x12-1 sxemasida ekib 10-11 hosil shoxida chilpish o'tkazganimizda bu ko'rsatkich 2020-yilda 120 kunni, 2021-yilda 121 kunni, 2022-yilda 120 kun bo'ldi, shu ekish sxemasida ekib 12-14 hosil shoxida chilpish o'tkazganimizda yillarga mos xolda 127-127-126 kunni tashkil qildi. Sulton navida 1-ko'sakning ochilishi eng erta bo'lgan variant 60x15-1 sxemada ekib 10-11 hosil shoxida chilpinganda kuzatildi bunda yillarga mos ravishda 118-120-119 kunni tashkil qilib nazorat variantiga nisbatan o'rtacha 10 kunga erta ochilganini kuzatdik.

Tajribadagi C-8294 g'o'za navini 60x12-1 sxemasida ekib 10-11 hosil shoxida chilpish o'tkazganimizda birinchi ko'sakning ochilishiga ketgan vaqt 2020-yilda 115, 2021-yilda 118, 2022-yilda 117 kunni tashkil qildi. Bu g'o'za navida xam 1-chi ko'sakning ochilishiga ketgan eng kam vaqt 60x15-1 sxemada ekib 10-11 xosil shoxida chilpish o'tkazganimizda (yillarga mos ravishda 111; 113; 113 kun) nazoratga nisbatan o'rtacha 17 kunga ko'sakning erta ochilganligi kuzatildi.

Ta'kidlash kerakki, biz izlanishlarimizda g'o'za navlarining qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar ta'sirida biologik xususiyatlariga bog'liq holda ko'saklarini ochilish tezligini (tezpisharligini) aniqladik. Barcha variantlarda ko'saklarni ochilishi 50 % dan ortgandan so'ng g'o'zada defoliatsiya tadbiri o'tkazilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki Xorazm viloyati o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida yetishtirilayotgan Sulton va C-8294 g'o'za navlari ilgaritdan ekib kelinayotgan Xorazm-127 naviga nisbatan barcha variantlarda erta pishib yetilishi aniqlandi. Ko'chat qalinligi ortib borishi xamda chilpishning kechiktirilishi g'o'za navlarining pishib yetilishiga salbiy ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) <https://agroinspeksiya.uz/oz/news/hududlarda-gozani-chilpish-ishlari-qizgin-pallaga-kirdi>
- 2) Abdualimov SH, Hasanova F. Avgust hosilga hosil qo'shish oyi // O'zbekiston qishqloq va suv xo'jaligi. Toshkent, 2023, №8, b-7-8.